

universal concepts such as life, death, wisdom, and the passage of time, whereas Karakalpak puzzles are more concrete and practical, closely tied to the natural world and daily life activities such as herding, farming, and fishing. In terms of structure, English riddles, especially from the Old

English period, are often longer, more poetic, and multi-layered, using complex figurative language and sometimes multiple possible interpretations. Karakalpak puzzles, by contrast, tend to be shorter, more direct, and focused on clarity, although they maintain rich metaphorical expression.

References

1. Айымбетов Н.Қ. Қарақалпақ фольклоры. Т. 88-100. – Нөкис: «Илим», 2015.
2. Алимов А. Қарақалпақ халық жумбақлары. – Нукус: «Қарақалпақстан», 1978.
3. Дементьев В.В. Теория речевых жанров. – Москва: «Знак», 2010.
4. Кенгэс-Маранда Э. Теория и практика анализа загадок. – Москва: «Наука», 1984.
5. Ковшова М.Л. Лингвокультурологический анализ идиом, загадок, пословиц и поговорок: антропонимический код культуры. – Москва: URSS, 2021.
6. Johnson D. Readings in Medieval Texts: Interpreting Old and Middle English. – New York: Oxford University Press, 2005.
7. Taylor A. English Riddles from Oral Tradition. – Berkeley - Los Angeles: University of California Press, 1951.
8. Williamson C. The Old English Riddles of the Exeter Book. – Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1997.

REZYUME. maqolada ingliz va qoraqalpoq topishmoqlari ularning funksiyasi, tuzilishi va shakli nuqtayi nazaridan qiyosiy-tipologik tahlil asosida o'rganiladi. Topishmoqlarni tadqiq etish insonning til va ijodiy qobiliyatlarining boyligini namoyon etish bilan birga, turli xalqlarning madaniy o'zligiga va tajribalariga oid chuqur ma'lumotlarni ham taqdim etadi.

РЕЗЮМЕ. Настоящая статья посвящена сравнительно-типологическому анализу английских и каракалпакских загадок с точки зрения их функции, структуры и формы. Исследование загадок не только демонстрирует богатство человеческих языковых и творческих способностей, но и раскрывает глубокие представления о культурной идентичности и жизненном опыте различных народов.

SUMMARY. The present article is devoted to comparative typological analysis of English and Karakalpak puzzles according their function, structure and form. The study of puzzles not only demonstrates the richness of human linguistic and creative abilities but also offers profound insights into the cultural identities and experiences of different peoples.

INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARI KOMPARATIV IBORALARINING SEMANTIK-STRUKTUR TAHLILI

S.P.Saparov – *filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: komparativ, adyektiv, iboralar, semantik-struktur, frazeologizm, komponent, qiyoslash, o'xshatish obyektlari.

Ключевые слова: компаратив, адъектив, выражения, семантико-структурный, фразеологизм, компонент, сравнение, объекты сравнения.

Key words: comparative, adjectival, expressions, semantic-structural, phraseology, component, comparison, objects of comparison.

Kirish. Taqqoslanayotgan iboralar semantikasi qiyoslash asosi yoki qiyoslash obyekti tahlilida aniqlanadi. Aksariyat holda semantik tasnif mavzuiy bo'lib, ularda «iboralar yoki qiyoslash asosi yoki qiyoslash obyektiga qarab tasniflanadi» [5]. Mavzuiy guruh muayyan mavzuda muloqot qilishda qo'llanadigan leksik birliklar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Mavzuiy guruh integratsiyasining asosi – mavzuiy guruhni tashkil etuvchi lug'aviy birliklarning denotatlari bo'lmish obyektiv voqelik predmetlarining o'zaro aloqalaridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O.M.Nevedomskaya frazeologizmlarning birinchi va ikkinchi komponentlarining leksik-semantik tahlilini keltiradi [4:14]. Sifatlarini (qiyoslash asosi) o'xshatishlar hosil qilishdagi mahsuldorlikka qarab taqsimlaydi. Otlar (o'xshatish obyektlari) to'rtta mavzuiy guruhga ajratilgan: a) jonli tabiat bilan bog'liq otlar (o'simliklar va hayvonot olami), b) jonsiz tabiat predmetlarini ifodalovchi otlar, v) inson faoliyati bilan bog'liq otlar, g) mavhum tushunchalarni ifodlovchi otlar. Mahsuldorligiga ko'ra bu otlar guruhida muallif yana kichik guruhlarni farqlaydi. Michael McCarthy va Felicity O'Dellar [9] shunday tasnifni keltiradiki, bunda amaliy maqsadda 44 ta mavzuiy guruh va ibora semantik strukturasiining asosiy komponenti sifatida ajratilgan somatizm yoxud boshqa bir lug'aviy birlikni o'z ichiga olgan iboralarning kichik guruhlari taqdim etilgan.

Ularining soni 16 ta bo'lib, semantik strukturalarning jami mavzuiy guruhlari – 60 ta.

A.N.Lyubova [3] ta'kidlaganiday, muqobillik darajasini taqqoslanayotgan frazeologik birliklar ma'nolarining to'liq muvofiqligi, leksik to'ldirilganligi va uslubiy xususiyati kabilar nuqtayi nazaridan tahlil qilish mumkin. Birinchi belgisiga ko'ra muqobillar konstant muqobillar deyiladi, ya'ni ma'nosiga ko'ra mos bo'lgan iboralar, shuningdek, semantik ma'nosiga ko'ra qisman farqlanuvchi polisemantik iboralar ajratildi. Ikkinchi belgisiga ko'ra muqobillar mutlaq muqobillar deyiladi, ya'ni bunday iboralarning leksik tarkibida qisman farqlanishlar va uslubiy yo'nalganlik mavjud. Soloduxo [7] ta'kidlaganidek, frazeologik ekvivalentlarning tashqi tomoni, ya'ni grammatik shakllanganligi va iboralarni tashkil etuvchi komponentlarning miqdoriy tarkibi ekvivalentlik darajasiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi. Shuning uchun, tillararo ekvivalentlarning uch turini ajratishda Yu.G. Solodub izdoshlarining [6] obrazli asosga murojaat qilishlarini mantiqiy jihatdan to'g'ri deb bilamiz:

1. obrazli tuzilishi o'zaro yaqin bo'lgan ayni frazeologizmlar;
2. obrazli o'xshashligi yiroq bo'lgan ayni frazeologizmlar;
3. taqqoslanayotgan tillarda ma'noviy va frazeologik muqobili bo'lmagan muqobilsiz frazeologizmlar.

Iboralarning obrazli tuzilishidagi aynan o'xshashlik va farqlilik qiyoslanayotgan tillardagi muqobillik yoki uning aksini belgilashda bosh mezon bo'lishi lozim. Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi adyektiv ibora semantikasi taqqoslanishida ham aynan shu qoidaga amal qilindi.

Adyektiv iboralar semantikasini taqqoslashda asosan L.K.Bayramovning yondashuvini qo'llab, frazeosemantik maydonlarni frazeologiyadagi «metodologik universalialar» deb atash mumkin [1:3-11].

Tahlil va natijalar. Tahlilda to'liq struktur-semantik ekvivalentlarga qator KAlni kiritish mumkin, ularda qiyoslash obyekti sifatida quyidagilarni ifodalovchi komponentlar qo'llanadi:

1. Sutka qismi nomi. Masalan: as clear as a day – kúndizgidey jırıq, kúndizgidey anıq, quyashday anıq (kunduzday aniq, xudoning kuniday ravshan); as black as night – túndey qarangı (tunday qora);

2. Uy-ro'zg'or buyumlari nomi: as sharp as a razor – almashtay keskir, pıshaqtay keskir (olmosdek keskir, pıchoqdek o'tkir); as white as sheet – súttey aq (sutday oq) [10:57-61].

3. Mavhum tushunchalar nomi: as ugly as sin – jaladay jağimsız, jazaday jağimsız (gunohdek xunuk); as innocent as a babe unborn – nárestedey girbińsiz, nárestedey haq, jańa tuwğan baladay (go'dakdek mas'um), as quick as thought – qıyalday júyrik (xayoldek uchqur).

Frazeologizmlar tarkibidagi alohida diqqatga sazovor so'zlar leksik-semantik jihatdan ushbu barqaror tuzilmalarning yadrosi vazifasini o'taydi. «Qoraqalpoq tilidagi frazeologik birikmalarning katta qismi insoniyat uchun hayotiy ahamiyatga ega narsa va hodisalar asosida vujudga kelgan», – deb ta'kidlaydi professor E.Berdimuratov – «ular orasida ko'pincha inson tana a'zolarini bildiruvchi so'zlar (bosh, yurak, til, ko'z, og'iz, quloq, oyoq va boshqalar) hamda hayvon nomlari (ot, tuya, qo'y, eshak, it va h.k.) uchraydi» [2:136-137]. Turkologiyada bu masalaga ko'pgina tadqiqotlar bag'ishlangan bo'lib, ular qatorida A.Isaev, S.Kenesbaev, U.Kenesbaeva, K.Gabitkanuli, Sh.Usmanovaarning ishlarini ko'rsatish mumkin. Ushbu ishlarda iboralarning komponentlari turli obyektiv maishiy hodisalar, o'simlik va hayvonot olami bilan bevosita aloqadorlikda yuzaga kelishi ta'kidlab o'tilgan.

Frazeologizmlarni mavzuiy guruhlariga ajratishda asosiy komponentlarga, ya'ni bitta guruhga mansub yadrolarga diqqat qaratildi. G.Aynazarovning nomzodlik ishida, yuqorida nomi tilga olingan tilshunos turkologlarning fikrlari asosida qoraqalpoq tilidagi simmetrik ikki komponentli iboralar quyidagi mavzuiy guruhlariga ajratilgan:

1) Kosmik olamni ifodalovchi asosiy komponent (yadro) asosida hosil bo'lgan iboralar: aspan ayaday, jer tebingidey – *every time one turns around* (odatiy, avvalgidek); ay dese awızı, kún dese kózi bar – *as pretty as a picture* (ajoyib).

2) Vaqt oraliqlarini ifodalovchi asosiy komponent (yadro) asosida hosil bo'lgan iboralar: kúndiz kúlki, túnde uyqı kórmegendey, kún-tún demeytuğın – *all the time, at all times* (har doim, har vaqt).

3) Insonlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi asosiy komponent (yadro) asosida hosil bo'lgan iboralar: dosqa kúlki, dushpangá taba – *curiosity killed the cat* (do'stga kulgi, dushmanga emish bo'lmaslik uchun); ózi

biy, ózi xoja – *ahead of the game/ as conceited as a barber's cat* (o'ziga xon, o'ziga bek); dos egiz, dushpan segiz – *strike up a friendship with someone* (do'stdan dushman ko'p); *mın siz bizden bir shıj-pıj – as easy as apple pie*.

4) Qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi asosiy komponent (yadro) asosida hosil bo'lgan iboralar: biri ini, biri aga – *match made in heaven* (родственные); uldı uyağa, qızdı qıyağa qondırğan – *get hitched* (бывалый).

5) Diniy tushunchalarni ifodalovchi asosiy komponent (yadro) asosida hosil bo'lgan iboralar: Quday bir, payğambar xaq – *religious about doing something* (xudo bir, payg'ambar haq); Quday degen (dep júrgen) bendemiz – *in someone's prayers* (Xudo degan odammiz).

6) Uy-ro'zg'or buyumlarini ifodalovchi asosiy komponent (yadro) asosida hosil bo'lgan iboralar: bosağasın barlatqan, keregisin sırlatqan – *as warm as a toast* (boy-badavlat).

7) Oshxona buyumlarini ifodalovchi asosiy komponent (yadro) asosida hosil bo'lgan iboralar: *qazanda may, shómishte may – as sweet as honey/sugar* (boy-badavlat).

8) Hayvonot olami bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi asosiy komponent (yadro) asosida hosil bo'lgan iboralar: Úyrek ushıp ğaz qonğan – *as gentle as a lamb* (hayvonot olamiga boy).

Kólinde bar qasqaldağı úyregi (Ájiniyaz “Ellerim bardı”) –; *Dúnyanı suw alsada, úyrekke bir pul – dime a dozen* (parvoyi falak). Beg'am, befarq. Dunyoni suv olsada, o'rdakka bir pul.

Yuqorida keltirilgan iboralar mazmunidan ko'rinib turibdiki, bunday tasnifiy belgilar barcha turdagi adyektiv FB'larga (frazeologik birlik) xos, KAFBlarning (komparativ adyektiv frazeologik birlik) tasniflanish darajasi jami iboralardan kam emas, shuning uchun yuqorida keltirilgan tasnifiy guruhlarda misollarni faqat KAFBlardan keltirdik.

Undan tashqari, KAFBlarning semantik strukturasi asosiy komponent (yadro) sifatida quyidagilar bo'lishi mumkin: a) geografik nomlar, b) tarixiy voqealar (faktlar), v) “pul” tushunchasi ham ushbu frazeologik strukturalar tarkibida uchrashi mumkin:

A) Ulin Rumğa, qızın Qırımğa qondırğan – *kith and kin* xoriyliklar bilan quda-andachilik qilgan odam – *olamga mashhur – glorified, well-known*.

B) Aq túyeni kórgen (megen) – *cat gets ones' tongue* (быть не в состоянии что-либо сказать «язык проглатил») oq tuyani ko'r(ma)gan – *aybdor* (aybsiz).

V) Qatti nanga zar, bir tislem nanga zar – *be on the breadline* (juda muhtoj, bir burda nonga zor); aqshağa duzaq qurgan – *dirty money*, (iflos pullar; noqonuniy daromad, nopok yo'llar bilan pul topadigan) *black money* (amer. jarg. “qora pullar”, soliqqa tortishdan yashiriladigan yashirin daromad); bir pul – *dime a dozen* (bir pul – befarq, beparvo); soqır tiyini joq – *below par/to cut off without a penny* (не имеющий ни гроши/оставить кого-либо без гроши); aqshanı suwday ağızıw, samalğa suwırğanday *jumsaw – have more money than sense, spend money like water*; shirigen bay – *money bag*, be flush with money (chaqadan pul qiladigan); aqsha jumsap bilmegenniń dáwleti tayar – *money is a good servant but a bad masters*; aqsha qoldırn kiri (ndey) – *almighty dollar* (pul qo'lning kiri); qağaz aqsha – *soft money* (qog'oz pullar); aqshanı qazıp alıp atırğan – *be flush of money, stink of money* (pulni ko'chadan supurib olish); mańlay tersiz

tabılǵan dúnya (aqsha), júǵımsız aqsha – easy money, maney for jam, muck and money go together (bebiliska pul); sawaplı aqsha (pul), sadaqa pul, járdem pul – smart money (yordam pul); aqshanıń (dúnyanıń) kasapatına ushıraǵan – money unmakes the men who make it.

Altın menen toltırsada arshalar

Baydın kúni kesher báhá el menen (Kúnxoja “El menen”).

Shu tariqa, qiyosiy usul taqqoslanayotgan tillardan har biriga oid materialni yanada chuqurroq, batafsilroq oʻrganish imkonini beradi va kelgusidagi tipologik tadqiqotlar uchun asos boʻladi, bu esa frazeologik muqobillar, oʻxshashlar va ekvivalentsiz FBlarni aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi FBlar strukturasi bilan ularning semantik va uslubiy xususiyatlarini tadqiq etishga, va shu asosda muqobilli va muqobilsiz iboralarni aniqlashga boʻlgan yoʻl, bizningcha, izchil va bosqichma-bosqich yoʻldir.

Semantika borasidagi koʻplab umumiy muammolarning ishlab chiqilganligi va mavzuiy guruhlar, sinonimik va antonimik qatorlar, semantik maydonlar, jumladan, frazeosemantik maydonlarni oʻrganish borasi toʻplangan tajriba ushbu ish doirasida semali tahlil asosida ingliz va qoraqalpoq tillari frazeologiyasini sistem oʻrganish imkoniyatini berdi.

Qoraqalpoq tilida adyektiv iboralar maʼno jihatidan bir nechta guruhga boʻlinadi: ulardan biri Inson tabiati bilan bogʻliq adyektiv iboralar, aq kókirek – *soft-hearted*; *júrek jutqan* (samimiy) – *whole-hearted*; *tas bawır* – *hard-hearted*, *stony-hearted*; *ash kóz* (jonsiz buyum, hissiz odam) – *a stick and (yoki ..dan) a stone*, soʻzlashuv, *a cold fish*; *beti qalın* – *as bold as brass*; *til algısh* – *gold mouth*; *eki júzli* – *two-faced*, *have the face to (beti qalın, sulloh (nimadir qilmoq))*; *eki sózli* – *as cunning as a fox, as sly as a fox*.

Yuqorida keltirilgan misollarda adyektiv iboralar ikkita komponentdan tashkil topgan va komparativ hisoblanmaydi. Ularning morfologik struktur tarkibi nutqning turli qismlarini qamrab oladi va turli usullar bilan ifodalanadi.

Xulosa va takliflar. Komparativ iboralarning barcha semantik guruhlarida milliy-oʻziga xos obrazlar ajralib turadi. Ushbu semantik maydondagi iboralarni mavzuiy guruhlariga taqsimlab oʻrganish frazeologizmlar qoraqalpoq tilida semantik jihatdan insonga qaratilgan degan xulosaga kelishga imkon beradi.

Frazeologizmlarning semantik koʻlami ijobiy va salbiy konnotatsiyalarni oʻz ichiga oladi. Obrazlarning semantik asosini tashkil etuvchi predmet va hodisalar yashash muhiti va etnik guruhlarining hayot faoliyati bilan bogʻliq. Qoraqalpoq frazeologik tizimiga oʻziga xos fazoviy va zamon rang-barangligi xos boʻlib, ularning har biri alohida belgi va ramziy maʼnoga ega.

Adabiyotlar

1. Байрамова Л.К. Тождество фразеологизмов в зеркале трансформаций и корреляций. // Проблема тождества фразеологических единиц. – Челябинск: 1990. – С. 3-11.
2. Бердимуратов Е. Хэзирги каракалпак тили. Лексикология. – Нөкис: «Билим», 1994.
3. Любова А.Н. Адъективные компаративные фразеологизмы в английском, немецком и норвежском языках: общее и специфическое: Дис... канд. филол. наук. – Москва: 2009.
4. Неведомская О.М. Компаративные фразеологизмы немецкого языка в сопоставлении с русскими. Автореф. дисс. на соискание уч. степени канд. филол. наук. – Л.: 1973.
5. Сидякова Н.М. Компаративные фразеологические единицы типа (as) + прил. + as + сущ. в современном английском языке: дис... канд. филол. наук. – Москва: 1967.
6. Солодуб Ю.Г. Фразеология как объект сопоставительного структурно–типологического исследования. Дисс... докт. филол. наук. – Москва: 1985.
7. Солодухо Э.М. Теория фразеологического сближения. – Казань.: Изд-во КазГУ, 1989.
8. Ғабитханұлы Қ. Наным сенім байланысты қазақ тіліндегі турақты тіркестер ҚДА. –Алматы: 1995.
9. McCarthy M., O'Dell F. English Idioms in Use. Intermediate. – Cambridge, 2018.
10. Perdebaevich S.S. Semantic-structural analysis of comparative expressions of english and karakalpak languages. // European journal of literature and linguistics, 2023, № 2.

РЕЗЮМЕ. Maqolada ingliz va qoraqalpoq tillaridagi komparativ iboralarning semantik va struktur xususiyatlari tahlil qilinadi. Frazeologik birliklar qiyoslash asosi va obykti boʻyicha tasniflanib, ularning mavzuiy guruhlar va leksik-semantik xususiyatlari oʻrganiladi. Tadqiqotda A.V.Kunin, A.N.Lyubova, E.Berdimuratov kabi olimlarning ishlari asos qilib olinadi. Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi adyektiv iboralar obrazli tuzilishi, semantik maydonlari va uslubiy xususiyatlari taqqoslanadi. Natijada, tillararo muqobillik darajalari aniqlanib, frazeologik tizimlarning milliy-oʻziga xos xususiyatlari yoritiladi.

РЕЗЮМЕ. В статье анализируются семантические и структурные особенности компаративных выражений в английском и каракалпакском языках. Фразеологические единицы классифицируются по основе и объекту сравнения, изучаются их тематические группы и лексико-семантические характеристики. Исследование опирается на работы таких ученых, как А.В.Кунин, А.Н.Любова, Е.Бердимуратов. Сравниваются образные структуры, семантические поля и стилистические особенности адъективных выражений в английском и каракалпакском языках. В результате определяются уровни межъязыковой эквивалентности и освещаются национально-специфические особенности фразеологических систем.

SUMMARY. This article examines the semantic and structural characteristics of comparative expressions in the English and Karakalpak languages. Phraseological units are classified based on their basis and object of comparison, with their thematic groups and lexical-semantic properties analyzed. The study draws on the works of scholars such as A.V.Kunin, A.N.Lyubova, and E.Berdimuratov. The figurative structures, semantic fields, and stylistic features of adjectival expressions in English and Karakalpak are compared. The findings establish levels of interlingual equivalence and highlight the national-specific characteristics of phraseological systems.